



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2022-2023-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida
o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish
to‘g‘risida

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2022-2023-o‘quv yilida o‘quvchilarning yakuniy nazorat imtihonlarini tashkil etish va o‘tkazish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlari 25-mayga qadar davom etishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

yakuniy nazorat imtihonlari o‘tkaziladigan fanlarning ro‘yxati va imtihon o‘tkazish shakllari 1-ilovaga muvofiq;

xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining davlat ta’lim standartlari asosida egallashi lozim bo‘lgan malaka talablariga muvofiq bilimlarini sinovdan o‘tkazish maqsadida 9- va 11-sinflar uchun yakuniy (bitiruv) nazorat imtihonlari (keyingi o‘rinlarda - imtihonlar) 1-ilovada keltirilgan fanlardan tashkil etilsin.

4. 2022-2023-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining bosqichli nazorat imtihonlarini o‘tkazish bekor qilinsin.

5. Imtihonlar 2023-yil 26-maydan 15-iyungacha amalga oshirilsin (Jismoniy tarbiya fani bundan mustasno).

6. Belgilab qo‘yilsinki, umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risida davlat namunasidagi sertifikat hamda 2-ilovada keltirilgan chet tili fanlari bo‘yicha kamida B1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo‘lgan o‘quvchilar imtihonidan muayyan fandan ozod qilinadi.

7. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9-sinf o‘quvchilari uchun Jismoniy tarbiya fanidan imtihonlar 2023-yil 1-6-may kunlari malakali tibbiyot xodimlarining nazorati ostida o‘tkazilsin (jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar hamda skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriy turidagi maktab-internatlar bundan mustasno).

8. Ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi va tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda imtihonlar umumta’lim muassasalariga qo‘yilgan talablar asosida o‘tkazilsin (Jismoniy tarbiya fani bundan mustasno).

9. Kar, zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida imtihonlar Ona tili va adabiyot fanidan bayon va Matematika fanidan yozma nazorat ishi shaklida amalga oshirilsin.

10. Aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda faqat Texnologiya fani bo'yicha imtihonlar o'tkazilsin hamda imtihonlarni o'tkazish muddati maktabning Pedagogik kengashi tomonidan belgilansin.

11. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov), Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov), Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rishlari uchun sharoitlar yaratish;

imtihonlarni shaffof, adolatli, xolis o'tkazilishini ta'minlash;

imtihonlarning o'z muddatlarida o'tkazilishini nazoratga olish;

12. Tabiiy va texnogen sabablarga ko'ra belgilangan muddatlarda imtihon o'tkazilishining imkoniyati bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida imtihonlarni tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari bilan kelishgan holda boshqa kunda o'tkazishga ruxsat berilganligini ma'lumot va ijro uchun qabul qilish;

imtihonlarning natijalari, ularni o'tkazish yuzasidan taklif va mulohazalarni umumlashtirib, 2023-yilning 3-iyuliga qadar Respublika ta'lim markaziga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

13. Respublika ta'lim markaziga 2023-yilning 31-martiga qadar:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim beriladigan barcha tillarda imtihonlar o'tkaziladigan fanlar bo'yicha, shuningdek, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, kar, zaif eshituvchi hamda aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun **namunaviy** imtihon materiallarini hamda baholash mezonlarini tayyorlash.

Bunda, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun kreativ va mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar kiritilishi inobatga olinsin;

aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning bitiruvchi sinflari o'quvchilari uchun Texnologiya fanidan imtihon o'tkazish bo'yicha tegishli tavsiya va mezonlar ishlab chiqish;

umumta'lim muassasalarida 2022-2023-o'quv yilini yakunlash, bitiruv sinflarida yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotni 2023-yil 1-avgustgacha Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamentiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

14. Axborot texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (R.Musurmonov), Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) bilan birgalikda 2023-yil 1-aprelga qadar imtihon materiallarini vazirlikning rasmiy veb-sayti (uzedu.uz) va eduportal.uz axborot ta'lim portaliga joylashtirsin.

15. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 6 - mart,
46 - son

